

**Ahmad Fargʻoniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi  
Axborot-bibliografiya boʻlimi**



**Oʻzbekiston xalq shoiri, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat  
arbobi, dramaturg Ramz Bobojon (1921-2008) tavalludining  
100 yilligiga “Moxir tarjimon” nomli**

## **TAVSIYAVIY ROʻYXAT**

**Fargʻona 2021**

## Ramz Bobojon (1921-2008)

O'zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg va tarjimon Ramz Bobojon 1921 yil Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. Dastlab Ta'lim va tarbiya bilim yurtida, so'ngra Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti)ning til va adabiyot fakultetida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini yoshlar gazetasida boshlagan ijodkor keyinchalik radiokomitetda muharrir, Adabiyot va san'at nashriyotida direktor bo'lib ishladi, ko'p yillar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari, "Vatan" jamiyati rahbari lavozimida xizmat qildi.

Ramz Bobojon sermazmun ijod yo'lini bosib o'tdi. Shoirning ilk to'plami 1939 yili nashr etilgan. Qariyb yarim asrlik ijodiy faoliyati davomida Ramz Bobojonning o'ttizga yaqin she'riy kitoblari, jumladan, "Hadya", "Oltin kamalak", "Vodiy bo'ylab", "Sevgi sirlari", "Senga, sevgilim", "Birinchi parvoz", "Muhabbatga ta'zim", "Sening mehring" singari majmualari, "Saylanma asarlari" adabiyot muxlislariga taqdim etildi.

Zamonaviy o'zbek dostonchiligida Ramz Bobojon qalamiga mansub "Obi hayot" asarining alohida o'rni bor. Bu dostonda atoqli shoir xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, do'stlik tuyg'usini ulug'lagan. Uning she'r va dostonlari bir qator xorijiy tillarga tarjima qilinib, chop etilgan.

Ramz Bobojon dramaturg sifatida ham faol ijod qildi. Uning "Tog'a va jivanlar" komediyasi, "Yusuf va Zulayho" dramasi tomoshabinlarning qizg'in e'tirofiga sazovor bo'lib, teatr san'atimiz tarixida o'ziga xos o'rin tutadi.

U jahon adabiyotining mumtoz namunalarini, jumladan, A.S. Pushkin, M.Yu. Lermontov, N.A. Nekrasov, A.A. Tvardovskiy, N. Tixonov singari rus shoirlarining she'r va dostonlarini, G. Ibsen, S. Mixalkov, N. Hazriy dramalarini ona tilimizga mahorat bilan tarjima qildi.

Ramz Bobojon mustaqillik yillarida hozirjavob publisist sifatida o'zining badia va maqolalari bilan istiqlolimizni tarannum etishga munosib hissa qo'shdi.

Ramz Bobojonning o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi katta xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni va "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan. Ramz Bobojon 2008 yilda vafot etdi.

Axborot kutubxona markazi tomonidan O'zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojon tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab "Moxir tarjimon" nomli bibliografik qo'llanma tayyorlandi. Ushbu tavsiyaviy ro'yxatdan o'qituvchilar, kutubxonachilar, talabalar va Ramz Bobojon hayoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

**O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan  
san’at arbobi, dramaturg Ramz Bobojon hayoti va  
faolyatining asosiy sanalari.**

**1921 yil 2 dekabrda** – Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi

**1936 yildan** – Ijodini boshlagan

**1939 yil** – Shoirning ilk to‘plami nashr etilgan

**1944 yil** – Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti)ning til va adabiyot fakultetida tahsil oldi

**1949-1959** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi

**1963-1967** – Badiiy adabiyot nashriyoti direktori lavozimlarida ishlagan

**1971 yil** – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi

**1981 yil** – O‘zbekiston xalq shoiri

**2003 yil** – “Elyurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan

**2008 yil** – vafot etgan.

**Ramz Bobojon asarlari**

**1958**

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar / Ramz Bobojon. – Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – 254 b.

Ushbu kitobda Ramz Bobojonning she’rlar to‘plami kiritilgan. To‘plam keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

**1965**

Ramz Bobojon. She’rlar : poeziya / Ramz Bobojon; Muharr. E. Vohidov. – Toshkent, 1965. – 192 b.

Bu she’rlar to‘plamida Ramz Bobojon baxt va tinchlik haqida kuylaydi.

**1969**

Ramz Bobojon. Senga sevgilim / Ramz Bobojon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969. – 544 b.

Ushbu kitobda Ramz Bobojonning “Syenga sevgilim” nomli she’r, ballada, poemalari berilgan.

### 1973

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : 3 tomlik / Ramz Bobojon T.1: She'r, ruboiy, ballada / Muharr. I. G'ofurov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973 (Poligrafkombinat). – 464 b.

Ramz Bobojonning 3 tomlik “Tanlangan asarlar” kitobining birinchi tomiga she'r, ruboiy, balladalar kiritilgan. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

### 1974

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : Uch tomlik. / Ramz Bobojon T.2: Poemalar / Muharr. I. G'afurov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 256 b.

Ramz Bobojon “Tanlangan asarlar”ining ikkinchi tomi shoir ijodining turli bosqichlariga mansub bo'lgan bir qancha dostonlarini o'z ichiga olgan.

### 1975

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : Uch tomlik / Ramz Bobojon T.3 Komediylar / Muharr. J. Nasriddinova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 288 b.

Ramz Bobojonning “Tanlangan asarlar”ining uchinchi tomi shoirning “Insu jins yoki tirik murdalar”, “Zuxraning maktublari”, “Jinoyatga o'rin yo'q”, “Tog'a-jiyanlar” kabi asarlardan tashkil topdi.

### 1980

Ramz Bobojon. Muhabbatga ta'zim : She'rlar, balladalar, poyema / Ramz Bobojon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 256 b.

Ramz Bobojonning “Muhabbatga ta'zim” kitobi sevgi va mehnat, do'stlik va qardoshlik, insoniylik va xaqgo'ylik haqidagi sara she'rlarini o'z ichiga oladi.

### 1981

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : Uch jildlik / Ramz Bobojon T.1 She'rlar, poemalar / Muharr. T. Norov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 480 b.

Ramz Bobojonning uch jildlik “Tanlangan asarlar” 1936-1966 yillar orasida yaratilgan. Tanlangan asarlarga she'r va poemalar kiritilgan.

Ramz Bobojon. Yusuf va Zulayxo yoki Og‘a inilar adovati : Dramatik poema / Ramz Bobojon. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981 (Matbuot). – 152 b.  
Ushbu kitobda Ramz Bobojonning “Yusuf va Zulayxo yoki Og‘a-inilar adovati” nomli dramatik poemasi berilgan.

### 1982

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : Uch jildlik / Ramz Bobojon T.2 She‘rlar, balladalar, poemalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982. – 448 b.

Atoqli o‘zbek shoiri Ramz Bobojonning uch jildlik “Tanlangan asarlar”ida shoirning 1967-1980 yillarda yozilgan asarlari jamlangan. Ular orasidagi she‘rlar maxorat bilan bitilgan.

### 1984

Ramz Bobojon. Tanlangan asarlar : Uch jildlik / She‘rlar, balladalar, tarjimalar / Ramz Bobojon T.3 / Muharr. T. Norov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984 (Matbuot). – 408 b.

O‘zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojonning uch jildlik tanlangan asarlarining yakunlovchi uchinchi jildiga muallifning turli yillarda yozgan she‘rlari, shuningdek, rus va qardosh xalqlar she‘riyatidan qilgan tarjimalari kiritilgan.

### 2000

Ramz Bobojon. Yusuf va Zulayxo : Dramatik doston / Ramz Bobojon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000 (Matbuot). – 136 b.

Ramz Bobojonning ushbu Yusuf va Zulayxo dramatik dostonida o‘ziga xos yangi mazmun va yangi shakl-shamoyil badiiy shukuh va yorqin zamonaviy ruh kasb etganligiga guvoh bo‘lasiz.

### 2001

Ramz Bobojon. Surayyo yulduzidan shu‘lalar : She‘rlar / Ramz Bobojon; Muharr. J. Subxon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001 (Kitob-jurnal fabrikasi). – 128 b.

Inson sevgi bilan, bir-biriga muhabbati bilan inson. Sevgi, sevgilisiga sadoqat - eng buyuk insoniy fazilat. Bu azaliy va o‘lmas mavzudagi she‘rlardan tortib tuzilgan to‘plamda sevikli yor yodi, uning xotirasi shoir qalbida abadiy yashashi ko‘tarinki ruhda tarannum etiladi.

## 2005

Ramz Bobojon. Muhabbat mezoni : Roman / Ramz Bobojon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2005. – 208 b.

Shoir bu romanida ikkinchi jahon urishidan keyingi yillardagi Samarqand, Qizilqumdagi tiklanayotgan hayot, ikki ziyoli insonning muhabbatini aks ettirgan.

## 2010

Biobibliografiya : bibliografiya / Muharr. K. R. Bobojonova. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010 (O‘zbekiston Milliy kutubxonasi). – 276 b.

20 asr o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri, xalq shoiri, publisist, dramaturg, jamoat arbobi Ramz Bobojon biobibliografiyasining tuzilishi hozirgi kun adabiy bibliografiyasining yana bir yutug‘i. Ko‘rsatkichlardagi materiallar xronologik va ichki alifbo tartibida joylashtirilgan.

### **Matbuot nashrlarida Ramz bobojon haqida etilgan maqolalar**

## 2009

Ramz Bobojon : Nekrolog : [O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg va tarjimon Ramz Bobojon vafoti haqida] // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – 2009. – № 1. – B. 2.

## 2011

Abdusamatov, X. She‘rim, daryo bo‘lib oq : [Atoqli shoir, iste‘dodli dramaturg va moxir tarjimon Ramz Bobojon ijodi haqida] / X. Abdusamatov // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – 2011. – № 42. – B. 3.

Tuzuvchi : G. Valiyeva.